

SURUNKALI PULPITLAR TASNIFI

Mamarasulov Shohruh Alisher O'g'li

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 1 bosqich klinik ordinatori

Nazarova Nodira Sharipovna

Professor,DKTF Stomatologiya kafedrası mudiri

Xatamova Madinaxon Anvarovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11543499>

Dolzarblik. Pulpit kasalligining surunkali turlari, ularning kelib chiqish sabablari, patogenezi, ularni qiyosiy tashxislash va davo choralari yangilanib bormoqda. Pulpitni rivojlanishida zararli omillarni ta'siri ularni ta'sir kuchi va vaqti katta ahamiyatni kasb etadi. Undan tashqari organizmni umumiy va mahalliy himoya kuchlari ahamiyatlidir. Pulpaning himoya funksiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillariga kiradi: bemorning yoshi, irsiyati, ovqatlanish ratsionining to'laligi, o'tkazilgan va yo'ldosh kasalliklar, kariesni rivojlanish intensivligi, garmonal aktivlik. Pulpitni kelib chiqishida asosiy omil bu biologik agentlar va ularning toksinlarini tish karioz bo'shlig'ining dentin kanalchalardan yoki perforacion yoriq orqali, yoki parodontal cho'ntak orqali, ba'zan infekcion kasalliklarda qon va limfa oqimi orqali tish ildizining uchki teshigi orqali pulpaga o'tishi natijasida kelib chiqadi.

Surunkali pulpit odatda o'tkir pulpitni oqibati hisoblanadi yoki birlamchi surunkali ham bo'lishi mumkin. Organizmning hirnoya xususiyatlari yaxshi takomillashgan bo'lsa va tish bo'shlig'i ochilgan hollarda pulpa to'qimasida proliferativ o'zgarishlar bo'lib, karioz kovakni to'ldiradi. Surunkali fibroz pulpit: bemorlarda harorat, mexanik va kimyoviy ta'sirotlar ta'siri tufayli simillovchi yoki kuchli va uzoq davom etuvchi og'riq paydo bo'ladi. Og'riq sovuq havodan ham paydo bo'ladi, darrov to'xtamaydi og'riqlar sababsiz rivojlanishi ham mumkin bo'lib, muntazam davom etmaydi. Bemor anamnezida tishda ilgari o'tkir og'riqlar bo'lganligi va bu og'riqlar sababsiz va har hil tashqi ta'sirotlardan kelib chiqqanligi aniqlanadi. Ob'yektiv holat: kovakning hajmi odatda ancha katta. yumshagan dentin bilan to'lgan. Zondlanganda tishni bo'shlig'i bir nuqtada ochiladi. Ochilgan pulpa qonab turadi. Har doim ham pulpa ochiq bo'lmaydi. Yumshagan dentinni tozalagandan keyin pulpa ochilishi mumkin. Hujayralar kamayib, o'rniga tolalardan iborat biriktiruvchi to'qima o'sadi. Odontoblastlar soni keskin kamayadi. Biroq yallig'lanish rivojlanishi va odontoblastlarning atrofiyasi boshlanishi bilan ular o'z vazifasini bajarish qobiliyati yo'qoladi. Makrofag va neytrofil granulocitlar soni ko'payadi. Nerv tolalari eksoplazmasida sitoliz o'choqlari aniqlanadi. Degenerativ o'zgarishlar kuzatiladi. Pulpa to'qimasi sklerozlashgan, burishgan, qattiqlashgan holga keladi. Burishgan pulpa va dentin oralig'i seroz suyuqlik bilan to'lgan. Pulpaga chirituvchi mikroblar tushishi natijasida surunkali gangrenoz pulpit kelib chiqadi. Bemor har hil ta'sirotlardan, jumladan issiqdan, uzoq davom etuvchi simillovchi og'riqqa shikoyat qiladi. Og'riq issiq xonadan tashqariga chiqqanda va sovuq havodan issiq xonaga kirganda paydo bo'ladi. Og'izdan qo'lansa hid keladi. Avval ayni shu tishda o'tkir xurujsimon og'riklar bo'lganini bemorlar eslashadi. Ob'yektiv holat: chuqur karioz kovak tish bo'shlig'i bilan tutashgan. Zondlanganda pulpani yuza (chirigan) qismi og'rimaydi, ildiz pulpasi og'riydi

(chuqur zondlash). Pulpani elektrosezuvchanligi pasaygan 60-80 mK ga javob beradi. Og'iz bo'shlig'idandan noxush hid keladi. makroskopik jihatdan pulpa qo'ng'ir qora rangdagi badbo'y yiringli massadan iborat. Mikroskopda pulpaning karioz kovagiga yaqin qismida to'qima elementlarini yo'qligi va ularni o'rniga strukturasi massa va har xil mikroorganizmlar bilan to'lganligi ko'rinadi. Jonli pulpa yonida demarkacion (bo'linish) chegara yuzaga keladi. Bu seroz yallig'lanish jarayonidir. Keyinchalik bu joyda yosh granulyatsion to'qima paydo bo'ladi. Bu to'qima pulpadan ajratib turadi. Surunkali gipertrofik pulpit surunkali fibroz pulpit oqibatida kelib chiqadi. Gipertrofik pulpitning rivojlanishi uchun eng avvalo pulpaning yuqori immunologik xossasi, yallig'lanish chaqiruvchi infekciya ta'siriga ortiqcha chidamligiga shart-sharoit hisoblanadi. Ob'yektiv holat: katta karioz kavak aniqlanadi. Tish qattiq to'qimalarining anchagina emirilishi va o'sib chiqqan granulyacion to'qimaning karioz kovakka qarab bo'rtishi gipertrofik pulpit uchun xos alomatlar hisoblanadi. Granulyatsiyaga zond bilan tekkanda tezda qonaydi. Surunkali gipertrofik pulpit va milk polipidan farqlanadi. a) umumiy o'xshash belgilari: karioz kavakda granulyatsion to'qima aniqlanadi, ovqat eganda og'riydi. b) ajratuvchi belgilari: milk polipi karioz kavak devorlari yo'q bo'lganda tishga o'sib kiradi, o'sib kirgan so'rg'ich atrofida zondni aylanib o'tkazsak, zond milkga tiralib to'xtab qoladi, gipertrofik pulpitda esa bemalol to'xtamasdan o'tadi. 2. Surunkali gipertrofik pulpit periodont va ildiz bifurkatsiyasini granulyatsion to'qima o'sib kirishidan taqqoslanadi: a) umumiy o'xshash belgilari: karioz kavakdagi granulyacion to'qima, ovqat eganda qonaydi. b) ajratuvchi belgi: rentgenologik suratda tish bo'shlig'ini tubi bifurkatsiya bilan qo'shilib ketganligini ko'rish mumkin. Mikroskopda pulpaning karioz kovagiga yaqin qismida to'qima elementlarini yo'qligi va ularni o'rniga strukturasi massa va har xil mikroorganizmlar bilan to'lganligi ko'rinadi. Jonli pulpa yonida demarkatsion (bo'linish) chegara yuzaga keladi. Bu seroz yallig'lanish jarayonidir. Keyinchalik bu joyda yosh granulyacion to'qima paydo bo'ladi. Bu to'qima pulpadan ajratib turadi. O'tkirlashgan surunkali pulpit, xurujsimon yoki tashqi ta'sirotlardan paydo bo'luvchi va uch shoxli nerv tarmoqlariga tarqaluvchi og'riq xosdir. Bemorlar ayni shu tishida avval ham og'riq bo'lganligini bildiradi. Ob'yektiv holat: chuqur karioz kavak va tish bo'shlig'i ochiqqligi aniqlanadi. Zondlanganda pulpa og'riydi. Pulpani elektrsezuvchanligi pasaygan va surunkali pulpitni bironta shakliga xos bo'lgan EOD ko'rsatmasi kuzatiladi.

References:

1. Nazarova N.SH, Musayeva G.A, Ravshanov I.R. Evaluation of Effectiveness of Combined Oral and Dental Therapy in Tobacco Growers. Journal of Research in Medical and Dental Science 2021, Volume 9, Issue 8, Page No: 241-246.
2. Rustem Hayaliev, Sabir Nurkhodjaev, Nodira Nazarova, Jasur Rizayev, Rustam Rahimberdiyev, Tatyana Timokhina, Ivan Petrov. Interdisciplinary Approach of Biomedical Engineering in the Development of Technical Devices for Medical Research. Journal of Biomimetics, Biomaterials and Biomedical Engineering Submitted: 2021-05, Vol. 53, pp 85-92 Accepted: 2021-05-11.
3. Rizaev Zh. A., Nazarova N. Sh. State of local immunity of the oral cavity in chronic generalized periodontitis. Bulletin of Science and Education 2020, No. 14 (92).Part 4. From 35-40.

4. Rizayev Jasur Alimdjaniyovich, Nazarova Nodira Sharipovna. Assessment Of Changes In The Condition Of Periodontal Tissues In Workers Exposed To Exposure To Epoxy Resin. The American journal of medical sciences and pharmaceutical research №2 P 14-17.
5. Rizaev Zh. A., Nazarova N. Sh. State of local immunity of the oral cavity in chronic generalized periodontitis. Bulletin of Science and Education 2020, No. 14 (92). Part 4. From 35-40.
6. Rizaev Zh. A., Nazarova N. Sh. Effectiveness of combined treatment of periodontal and mucosal diseases working with harmful production factors. Problems of biology and medicine. 2020. №3 (119) . From 85-88.
7. N. S. Nazarova, T. A. Berdiev. Эпоксид смолалар таъсирига учраган ишчиларда пародонтал туқималар ҳолатининг узгаришини баҳолаш. Жамият ва инновациялар. 2020, October. From 566-570.
8. Rizaev Zh. A., Nazarova N. Sh., Berdiev. T. A. Shisha tolali tuzilmalarni ishlab chikariishda NBF gingival gelining samaradorligi. Жамият ва инновациялар. 2020, October From 678-682.
9. N. S. Nazarova, T. A. Berdiev. Эпоксид смолалар таъсирига учраган ишчиларда пародонтал туқималар ҳолатининг узгаришини баҳолаш. Жамият ва инновациялар. 2020, October. From 565-569.
10. Rizaev Zh. A., Nazarova N. Sh., Berdiev. T. A. Shisha tolali tuzilmalarni ishlab chikariishda NBF gingival gelining samaradorligi. Жамият ва инновациялар. 2020, October. From 565-569.
11. Rizaev Zh. A., Nazarova N. Sh. Effectiveness of combined treatment of periodontal and mucosal diseases of workers with harmful production factors. Problems of biology and medicine. 2020. №3 (119). From 85-88.
12. Nazarova Nodira Sharipovna, Islomova Nilufar Bustanovna. Assessment of clinical and morphological changes in the oral organs and tissues in post-menopause women. Frontline medical sciences and pharmaceutical journal. Volume 02 Issue 05, 2022. P. – 60-67.
13. N. S. Nazarova, N. B. Islomova. Postmenopauza davridagi ayollarda stomatologik kasalliklarining klinik va mikrobiologik ko'rsatmalari va mexanizmlari. Journal of Medicine and Innovation. 2 (6), 2022. P. - 204-211.
14. Kodirova, M. M., & Anvarova, S. (2024). TIBBIY MALAKALI MUTAXASSISLARNI TAYORLASHDA UMUMIY TIBBIY PEDAGOGIKADAN FOYDALANISH MECHANIZMI. (KOMMUNAL VA MEHNAT GIGIYENASI FANINI OQITISH MISOLIDA). Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 20(4), 59-63.
15. Kodirova, M. M., & Muxammadova, G. Q. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TIZIMINING TIBBIYOT FANLARINI O'QITISHDAGI O'RNINI (Kommunal va Mehnat gigiyenasi dars mashg'ulotlarini organayzerlar asosida). PEDAGOGS, 53(1), 37-41.
16. Muxammadova, G. Q., & Kodirova, M. M. (2023). ISHLAB CHIQRISH SANOAT KORXONALARINI AHOLI YASHASH JOYLARI ATMOSFERA HAVOSIGA TASIRI. Экономика и социум, (11 (114)-2), 274-279.
17. Muxammadova, G. Q., Kodirova, M. M., & Boqijonov, F. A. (2024). THE EFFECT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES ON ATMOSPHERIC AIR. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 28, 5-9.

18. N. S. Nazarova, Sh. Sh. Shukurov. B va C surunkali virusli hepatitlarda surunkali tarqalgan parodontit diagnostikasining klinik-morfologik asoslanishi. Journal of Medicine and Innovation. 2 (6), 2022. P. – 118-123.
19. N. S. Nazarova, Zh. B. Saidmuradova, and I. R. Ravshanov. Pathogenetic aspects of periodontal tissue diseases in orthodontic treatment. Journal of Medicine and Innovation. 2 (6), 2022. P. - 183-191.
20. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ishlab_chiqarish
21. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Neft_kimyosi_sanoati
22. <https://yuz.uz/uz/news/neft-va-gaz-sohasida-talim-ishlab-chiqarish-klasteri-tashkil-etildi>



INNOVATIVE
ACADEMY